

## INGLIZ TILIDAGI TALAFFUZNI O'RGATISHNING INNOVATSION USULLARI

*Mingbayeva Mamura Farhod qizi.*

*Samarqand davlat chet tillari instituti*

*Ingliz tili fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda xorijiy til ingliz tili  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Ilmiy raxbar: Zubaydova Nilufar Negmatullayevna.*

*Ilmiy raxbar: Nigora Azzamova Rajabboyevna*

**Annotatsiya,** Mazkur maqolada ingliz tilida talaffuzni o'rgatishning zamonaviy usullari, jarayonda uchraydigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Talaffuzni rivojlantirishda o'yinlarning ahamiyati va samarali metodlar yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi natijalar va yechimlar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** Talaffuz, innovatsion usullar, muammolar, o'yinlar, natijalar, ingliz tili o'qitish.

### **Kirish.**

Talaffuz tilni o'rganishda asosiy omillardan biri bo'lib, o'quvchilarning o'z fikrini aniq va to'g'ri ifodalashiga yordam beradi. Ammo talaffuzni o'rgatish ko'pincha boshqa ko'nikmalarga qaraganda e'tibordan chetda qoladi. Zamonaviy metod va texnologiyalar, xususan, o'yinlar yordamida talaffuzni rivojlantirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Ushbu maqola bu boradagi muammolar va innovatsion yondashuvlarni ko'rib chiqadi.

### **Muammolar.**

1. Fonetik farqlarni anglashdagi qiyinchiliklar: O'quvchilar ko'pincha o'z ona tilining talaffuz qoidalarini ingliz tiliga tatbiq etadi, bu esa xatoliklarga olib keladi.
2. Tinglash va so'zlash o'rtasidagi tafovut: O'quvchilar so'zlarni eshitganicha talaffuz qilishda qiynaladi, ayniqlasa, ingliz tilidagi tovushlar o'z ona tilida mavjud bo'lmasa.
3. Motivatsiyaning pastligi: Talaffuzni o'rganish zerikarli va murakkab jarayon sifatida qabul qilinishi mumkin.
4. Texnik vositalarning yetishmasligi: Zamonaviy texnologiyalar yoki innovatsion resurslarning yetishmasligi talaffuzni o'rgatish jarayonini qiyinlashtiradi.

### **Natijalar va yechimlar:**

- O'quvchilarga fonetik mashqlarni takrorlash orqali noto'g'ri talaffuzlarni to'g'rakash samarali bo'lishi aniqlangan.
- Interfaol dasturlar (masalan, Pronunciation Coach yoki Elsa Speak) talaffuzda avtomatik fikr bildirish orqali xatolarni tezda aniqlash imkonini beradi.

- Audio va video materiallardan foydalanish o‘quvchilarni autentik talaffuz bilan tanishtiradi.

O‘yinlar: 1. “Tovushni aniqlash”: O‘qituvchi bir so‘z yoki iborani talaffuz qiladi, o‘quvchilar esa unga mos keladigan harfini yoki tovushni topishlari kerak. Tovushni aniqlash. Misol: O‘qituvchi "s" tovushini talaffuz qiladi. O‘quvchilar "s" tovushidan boshlanuvchi so‘zlar keltirishi kerak, masalan, "suv", "sariq", "sandal". Dalil: Tovushni aniqlash o‘quvchilarga so‘zlarning fonetik tuzilishini tushunishga yordam beradi. Bu ko‘nikma, o‘z navbatida, o‘qish va yozish jarayonida to‘g‘ri talaffuz qilish uchun zarur.

2. “Echo Game”: O‘qituvchi so‘z yoki iborani talaffuz qiladi, o‘quvchilar esa intonatsiya va ritmni saqlab, uni qaytaradi. Misol: O‘qituvchi "I love learning languages!" deb aytadi. O‘quvchilar esa aynan shu jumlan intonatsiya va ritmda qaytarishadi. Dalil: Bu o‘yin o‘quchilarning eshitish qobiliyatini rivojlanтирди va ularni talaffuzning muhim jihatlari – intonatsiya, stress va ritmni tushunishga o‘rgatadi. O‘quvchilar bunday o‘yinlar orqali nutqni yanada ravonroq va aniqroq qilishga erishadilar.

3. “So‘z zanjiri”: Bir o‘quvchi bir so‘z aytadi, keyingisi shu so‘zning oxirgi harfiga mos so‘z aytadi. Bu o‘yin talaffuz va lug‘at boyligini oshiradi. Misol:

- Birinchi o‘quvchi: "Kitob"(book).
- Ikkinci o‘quvchi: "Bosh"(head).
- Uchinchi o‘quvchi: "Sham"(candle).
- To‘rtinchi o‘quvchi: "Maktab". Dalil: So‘z zanjiri o‘yini o‘quchilarning lug‘at boyligini oshirish bilan birga, ularni tez fikrlashga va muloqotda qatnashishga undaydi. Bu ko‘nikmalar kelajakda o‘qish va yozishda muhim ahamiyatga ega.

4. “Tongue Twisters” (til burishtiruvchi jumlalar): Masalan, “She sells seashells by the seashore”. Bu o‘yin talaffuzni yaxshilashda juda samarali. “Peter Piper picked a peck of pickled peppers. “How can a clam cram in a clean cream can?” Dalil: Til burishtiruvchi jumlalar talaffuzni yaxshilash va nutqni tezlashtirishda juda samaralidir. Ular o‘quchilarga qiyin tovushlarni takrorlash orqali talaffuzlarini yaxshilash imkoniyatini beradi. Bu ko‘nikma, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishda juda muhimdir.

**Xulosa**, Ingliz tilidagi talaffuzni o‘rgatishning innovatsion usullari nafaqat o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlanтирди, balki ularni dars jarayoniga qiziqtiradi. Muammolarni aniqlash va ular uchun yechimlar ishlab chiqish orqali talaffuzni o‘rgatish jarayonini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Innovatsion o‘yinlar va texnologiyalardan foydalanish esa bu jarayonni samaraliroq qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abduqahhorova, M. (2014). Ingliz tili talaffuzini o‘rgatishning muammolari va yechimlari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.

2. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2010). *Teaching Pronunciation: A Course Book and Reference Guide*. Cambridge University Press.
3. Ergasheva, D. (2017). *Ingliz tilida talaffuzni o'rgatish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashri.
4. Jenkins, J. (2000). *The Phonology of English as an International Language*. Oxford University Press.
5. Jones, D. (2011). *English Pronouncing Dictionary*. Cambridge University Press.
6. Mamatqulov, M. (2011). *Ingliz tilida talaffuzni o'rgatishda audio-vizual materiallardan foydalanish*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
7. Sultonov, R. (2018). *Innovatsion texnologiyalar yordamida talaffuzni o'rgatish*. Toshkent: Fan va ta'lif.
8. Underhill, A. (2005). *Sound Foundations: Learning and Teaching Pronunciation*. Macmillan Education.
9. Walker, R. (2010). *Teaching the Pronunciation of English as a Lingua Franca*. Oxford University Press.
10. Xayitboyeva, G. (2015). *Talaffuzni o'rgatishning zamonaviy usullari*. Toshkent: Science and Education.